

201
A

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

5,16,34,35

1-38

1-1X
2019

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:1 (67218)
2019-yil 7-yanvar

www.tongyulduzi.uz

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqaboshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetası

VAQTINGIZNI
«TONG YULDUZI»
BILAN MAROQLI O'TKAZING

Aziz o'quvchilar!
«Tong yulduzi»ning
qadrli muxlislari!
Mana, 2018-yil
bilan xayrashib,
2019-yilni yaxshi
kayfiyat ila
kutib oldik. Ayni
kunlarda ortda
qolgan yilimizni
sarhisob qilib, yangi
yilga yangi-yangi
rejalar tuzayapmiz.
Bejizga, yil boshi
- yo'l boshi,
demaymiz-da.

(Davomi 2-betda)



«MAKTAB RADIOSIDAN GAPIRAMIZ...»



Biz «Tong yulduzi» gazetasini maroq bilan
mutolaa qilamiz. Ayniqsa, undagi she'r
va hikoyalarni yod olib, maktabimizdagi
tadbirlarda foydalanamiz.

Maktabimiz Xovos tumanining chekka qishloqlaridan
birida joylashgan bo'lsa-da, «Tong yulduzi» sabab
respublikadagi barcha yangiliklardan boxabarmiz. Shu
bois, gazetaning barcha sonini kutubxonamizda saqlab
kelamiz.

Maktabimiz radiosida
o'quvchilar o'z ijod namu-
nalarini, gazetadagi yangi-
liklar bilan faol chiqishlar
uyushtiradi. Fursatdan
foydalanib, o'quvchi ham-
da o'qituvchilarga zavq-u
shavq ulashib kelayotgan
«Tong yulduzi»ning jonkuyar
xodimlariga cheksiz minnat-
dorlik bildiraman. Sizlarga
7-sinf o'quvchisi O'Imasoy
Qodirqulovaning ijod namu-
nasini yuboryapman.

**QUYOSH
KULIB
BOQADI**

Vatanimiz durdona,
U olamda yagona.
Quyosh kulib boqadi,
Tinchlik elga yoqadi.

Oftobbandir mevasi,
Mehnatsevar bolsasi.
Vatan bizga bir ona,
O'zbekiston – yagona.

Gulchehra O'RAZOVA,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 2-umumta'l'm
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

VAQTINGIZNI «TONG YULDUZI» BILAN MAROQLI O'TKAZING

(Davomi. Boshi 1-betda)

Xaba-

ringiz bor, 2018-yil-ning 28-dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida kirib kelgan yangi – 2019-yilga «Faoi investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» deb nom berishni taklif etdi. Yilning nomlanishidan ham bilish mumkinki, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirish, farovonligini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar bundan buyon ham izchil davom ettiriladi. Yurtimizga faol investitsiyalarni jalb qilish borasidagi ishlar zamirida ham inson omili, uning ijtimoiy muhofazasi yotadi. Shuningdek, siz aziz yoshlar uchun ham imkoniyatlар eshibi yanada kengroq ochilmoqda. Jumladan, Murojaatnomada 2019-yildan yoshlarga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyati berilishi, oliy ta'lim muassasalarida real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimi joriy etilishi hamda bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlari yanada kengaytirilishi fikrining dalili bo'la oladi.

Bunday g'amxo'rlikdan unumli foydalanib, o'z bilimi, salohiyati bilan oliy o'quv yurti talabasi bo'lish uchun esa siz aziz o'quvchilardan maktab partasidanoq a'lo baholarga o'qish, xorijiy tillarni puxta o'rganish, yurtimizda bo'layotgan yangiliklardan xabardor bo'lish, kitobxonlikka yo'l ochuvchi gazeta-jurnallarni muntazam kuzatib borish talab etiladi.

«YILNING ENG YAXSHI «KAMALAK» SARDORI»

Tarixga aylangan 2018-yilda o'quvchi-yoshlarimiz erishgan yutuqlarni bugun sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi. Ayniqsa, yil so'ngida «O'zbekiston yoshlar ittifoqi mukofoti» tanlovida g'olib bo'lgan tengdoshlarining havas qilganingiz aniq.



Aytish kerakki, mazkur tanlov yilning eng yosh olimi-yu tadbirdori, ixtirochi va «Kamalak» sardorini kashf etdi. «Yilning eng yaxshi «Kamalak» sardori» nomiga munosib deb topilgan Madinabonus Saidjonova Shahrisabz shahar 1-ixtisoslashtirilgan umumta'lum maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi. U O'zbekiston yoshlar ittifoqining Shahrisabz shahar Sardorlar Kengashining «Kamalak» sardori. Faol va iste'dodli qahramonimiz shu kunga qadar «Kamalak» bilimdonlari», «Kamalak» yulduzları», «Zukko kitobxon» kabi festival va ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatlari ishtirot etgan.

Aziz o'quvchim! Yil avvalida siz ham katta rejalar tuzing va egzu maqsadilar sari olg'a intiling! Ajab emas, boshlangan yil siz uchun ham omadil va muvaffaqiyatlari, siz ham faxrli qahramonimizga aylansangiz!

Sayyora QODIROVA



«Yosh kitob-

xon» – 2018» kitobxonlar bellashuvini

«Yoshlar» telekanali orqali kuzatib bordingiz. Tanloving 10–14 yoshlilar o'tasida bo'lib o'tgan bosqichida Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 24-umumta'lum maktabining 8-sinf o'quvchisi Mahliyo O'rroqova 1- o'rinni egalladi va Prezident sovg'asi – «Spark» avtomobilini qo'lga kiritdi. Mahliyo bilan bo'lgan suhbatdan ma'lum bo'ldiki, ularning oilasi davrasida har kuni gazetxonlik, kitobxonlik haqida so'z borar ekan. Mazkur tanloving 20–30 yoshlilar o'tasida o'tkazilgan bosqichida esa «Tong yulduzi» gazetasining faol muxbirlardan biri Dilnavoz Najimova 2-o'rinni egalladi. Dilnavoz opangizning ilk maqolasi «Tong yulduzi» gazetasida 2010-yilda, ya'ni 5-sinfda o'qiyotganida chop etilgandi. U ko'plab tanlovlariimizda g'olib bo'ldi va 2017-yilda eng yuqori – 236 ball to'plab, Davlat granti asosida Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetiga o'qishga qabul qilindi. Yana bir gazetxon o'quvchimiz qoraqalpog'istonlik Ayjamal Karamatdinova ham maktabda o'qib yurgan paytlarida «Tong yulduzi» bilan do'stlashdi va gazetada e'lon qilingan tanlovlariimizda g'olib o'quvchilar safida bo'ldi. Quvonarlisi, Ayjamal 2017-yilda muhtaram Prezidentimiz qo'lidan Zulfiya nomidagi davlat mukofotini qabul qilib oldi. Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Demoqchimizki, yutuqlar, muvaffaqiyatlar o'z-o'zidan kelmaydi, yillar davomida misqollab yig'iladi, salmoqlari natijalarga aylanadi.

Bugungi gazetxonlarimiz orasida ham iqtidorli, izlanuvchan o'quvchilarimiz juda ko'p. Ularning ham ismlari kelgusida faxr bilan tilga olinishiga ishonamiz.



Shuni

mammuniyat bilan ta'kidlash o'rinni, o'tgan 2018-yilimiz «Tong yulduzi» gazetasi uchun

omadil, quvonchli, yangi-yangi loyiham, tadbirlarga boy yil bo'ldi. Buni ko'pchilik gazetxonlarimiz yaxshi bilsa-da, safimizga yangi qo'shilgan aziz o'quvchilarimizga yana bir bor eslatib o'tishni joiz topdi.

Jumladan, «Tong yulduzi» gazetasining internetdagи rasmiy sayti – www.tongyulduzi.uz butkul yangicha dizaynda ish boshladi. Telegram ijtimoiy tarmog'iда «Tong yulduzi»ning t.me/tongyulduz rasmiy kanali ochildi. Uning o'quvchilarini soni kundan kunga ortib borayotgani bizni niyoyatda quvontirmoqda. Bu kanal orqali ota-onalar, aka-opalar yordamida o'quvchilarimiz bilan yaqindan muloqot qilish imkoniga ega bo'ldik.

Shuningdek, yoshlarimizni tejamkorlikka, ya'ni iqtisodiy boyligimiz bo'lgan elektr energiyasi, ichimlik suvi, tabiy gazimizni behuda isrof qilmaslik, uni me'yorida sarflashga o'rgatish maqsadida «Tong yulduzi»da e'lon qilingan «Boylikni bolalidan asrang» respublika rasmlari va insholar tanlovi hamda yoshlar o'tasida mutolaa madaniyatini oshirishga qaratilgan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi har yili yangi-yangi iste'dodlarni kashf etishga xizmat qilmoqda. Quvonarlisi, 2018-yilda ushbu tanlovlardan g'oliblari o'zlarini tahsil olayotgan maktablarida taqdirlashni yo'lga qo'ydi. Taqdirlash marosimiga qo'shni maktablardan ham ustozlar, o'quvchilar taklif etildi. G'oliblarga faxriy yorliq va kitoblar, ularning ustozlariga esa «Tong yulduzi»ning tashakkurnomasi hamda kitoblar sovg'a qilindi.

2019-yilda ham bu tanlovlariimiz davom etadi. Shuningdek, yangi loyiham borasida ham izlanmoqdamiz.



Feruza SOYIBJON qizi

Gaze-

tamizning o'tgan 2018-yildagi 46-sonida berilgan «Vaqtingizni biz bilan maroqla o'tkazing!» nomli materialimizda 2019-yilgi obuna mavsumida faol qatnashib, «Eng faol sinif», «Eng faol maktab» nomini olgan sinif va maktab tahririyatimiz tomonidan rag'batlanrilishi aytilgan edi. Kuni kecha g'olib sinflar-u maktablar aniqlandi. Bu mavzuga gazetamizning keyingi sonlarida yana qaytamiz.

2019-yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishga, tanlovimizda qatnashishga ulgurmagan o'quvchilar, aslo xafa bo'lmaning, bu imkoniyat sizga yil davomida beriladi. Buning uchun har bir sinf va maktab obuna varaqasi nusxasini pochta orqali yoki elektron manzilimizga yuborishlari kerak bo'ladi, xolos.

Siz ham izlanuvchan, barkamol o'g'il-qizlar qatorida bo'lishni istaysizmi, unday bo'lsa, «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishga shoshiling! Fursatni qo'lidan boy bermay, g'oliblar safidan joy oling! 2019-yilda «Tong yulduzi» bilan vaqtingizni maroqla va mazmunli o'tkazing. Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!



ORZULAR USHALGAN KUN

...Yangi yil. Ezgu orzular bayrami. Jajji bolajonlar qalbi quvonch va shodlikka to'la. Rang-barang chiroqlar, chirolyi o'yinchoqlar bilan bezatilgan baland archa atrofida Qorbo-bo va Qorqiz, turli ertak qahramonlari bolajonlarni o'yinga chorlaydi. Qorbobadan olingan bayram sovg'alari sabab, shox' va quvnoq bolajonlarning beg'ubor ko'zları sevinch-dan porlaydi. Barcha bir-biriga ezgu tilaklar ilinadi.

Poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida bo'lib o'tgan «Prezident archasi» bayram tantanalarini ana shunday unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Sen yolg'iz emassan» Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi va boshqa qator tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan ushbu tadbirda Mehrionlik uyi tarbiyalanuvchilar, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar hamda Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi yo'lida qurban bo'lgan ichki ishlar xodimlari va harbiy xizmatchilarning farzandlari ishtirot etdi.



— Har yili «Prezident archasi»ni intiqlik bilan kutaman, — deydi Toshkent viloyati, Parkent tumaniidagi 27-umumta'l'm maktabi o'quvchisi Samandar To'xtamurodov. — Shu kuni archa atrofida Qorbo-bo va Qorqiz bilan raqsga tushib, zavqlanamiz. Ayniqsa, Yangi yil sovg'alarini juda-juda yaxshi ko'raman. Kelajakda harbly bo'lib, ona Vatanimni yovlardan himoya qilaman.



Shu kuni turli bolalar ijodiy studiyalari kichkintoylari bayramga yig'ilgan tengdoshlariga «Orzu qil!» nomli maxsus teatrlashtirilgan bayram dasturini namoyish etib berdi. Yosh iqtidor egalari ijrosida rang-barang kuy-qo'shiqlar, she'rlar yangradi. Elimiz sevgan xonandalarning diltortar qo'shiqlari, sirk ustalarining ajoyib chiqishlari esa jajji bolakylar qalbiga yanada quvonch va zavq ulashdi. Shuningdek, turli ertak qahramonlarning sarguzashtlarga boy sahna ko'rinishlari yosh tomoshabinlarga unutilmas onlarni hadya etdi. Eng esda qolarlisi, shu kuni kichkintoylarga Prezident sovg'alari ulashildi.

— Bugungi bayramdan olam-olam taassurot oldim, — deydi poytaxtimizning Uchtepa tumaniidagi 107-umumta'l'm maktabining 4-«L» sinf o'quvchisi Madina Ravshanbekova. — Ayniqsa, menga ertak qahramonlarning g'ayroyib sahna ko'rinishlari rosa yordi. Qishki ta'til yakunlangach, maktab-dagi dugonalarimga bu haqda, albatta, so'zlab beraman.

Ayni paytda «Prezident archasi» tadbirilari mamlakatimizning barcha hududida ko'tarinkilik bilan o'tkazilmoqda.

Sa'dullo TURSUNOV

14-yanvar - Vatan himoyachilar kuni

ASKAR BO'LAMAN

Asad Mansurov.

Harbiyameng bir safda shax-dam qadam tashlab, zamonaviy texnikalarni mohirona bosh-qarishi har bir o'g'il bolaning havasini orttiradi. Bugungi o'g'il bolalar Vatanimizning ertangi posbonlaridir. Biz ham o'z navbatida, yurtimiz posbon-larin yaqinlashib kelayotgan «Vatan himoyachilar kuni» bilan muborakbos etamiz.



— Bolajonlar, qani ayting-chi, Yangi yil shodiyonalaridan so'ng qaysi bayramni nishonlaymiz?

O'qituvchining bu savoliga o'quvchilar bir ovozdan: «Vatan himoyachilar kuni»ni, deya javob berdi. «Barakkalla, bu bayram, ayniqsa, o'g'il bolalar uchun juda qadri, shunday emasmi? Axir ular bo'lajak harbiyalar, bizning himoyachilarimiz-da. Shu kun munosabati bilan bugun shahrimiz bo'ylab sayohatga chiqamiz!»

«Harbiy vatanparvarlik olyligi» doirasida o'tkazilayotgan navbatdagi tadbiri e'lon qilgan sinf rahbari Nilufar To'xtayevan-ning bu yangiligi Navoiy shahridagi 16-DIUMning 5-«B» sinfida tahsil olatyotgan o'quvchilarga juda ma'qul bo'ldi.

— Men ushbu sayohat davomida harbiyalar haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldim. Askar bo'lish uchun inson jismonan chiniqqa, mard va jasbur bo'lmog'i kerak. Menimcha, sinfimizdagি har bir o'g'il bola bu sayohatdan keyin harbiy bo'lishga ahd qildi, — dedi 5-«B» sinf o'quvchisi Sanjar Tos temirov.

— Men jangovar qurollarni tomosha qilganimda, bu texnikadan foydalansh uchun katta kuch kerakligini tushunib yetdim. Chunki harbiy qurollar juda o'g'ir ekan. Ularni ishga tushirish esa o'ziga yarasha murakkab. Men kelajakda harbiy bo'lishni dilimga tugib qo'ydim. Buning uchun esa hozirdanoq jismonan chiniqib, barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtiraman, — dedi Sanjarning sindoshni

TA'TILDAGI REJALARIM

Yangi yil ayyomidan so'ng bolajonlar miriqib hordiq chiqarishni xush ko'radi, albatta. Ayrimalar oynayi jahon qarshisida bayram tantanalarini tomosha qilishni yoqtirsra, ba'zilari dam olish maskanlarida yusushtirilayotgan tadbirlar sari oshiqadi.

Navoiy shahridagi 16-DIUMning 6-«J» sinf o'quvchilari o'tasida «Ta'tildagi rejalarim» insholar tanlovi e'lon qilindi. Bolalar o'z insholarida qishki ta'tilni qanday o'tkazishlari haqida bir-birlari bilan fikr almashtilar. Tanlovdan Jasmina Nurmatova, Mehriniso Tuqsonova faol qatnashishdi. Endi ta'tildan so'ng ular hordiq taassurotlari haqida miriqib suhbatalashadilar.

Ozoda TURSUNBOYEVA

OCHIQ DARS

Men yil davomida «Tong yulduzi»ning har bir sonini sevib o'qidim. Yangi – 2019-yil uchun gazetaga sinfimiz bilan obuna bo'ldik.



Yaqinda alifbe fanidan ochiq dars bo'ldi. Unda Z tovushi va harfi haqida tushunchaga ega bo'ldik. Darsda ota-onalar, ustozlar qatnashdi. Tadborda «Tez top!», «So'z tuz», «Qarsak chal-di», «Ortiqchasini top» kabi o'yinlar o'ynadik. Ochiq dars oxirida eng faol o'quvchiga esdalik sovg'alari berildi.

Gulhayo SHUHRATOVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumaniidagi 19-umumta'l'm maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi

USTOZ IS'HOQXON IBRAT MUZEYIDA

Namangan

viloyati, To'raqo'rg'on tumani,
To'raqo'rg'on ko'chasidagi katta maydonda ta-
rixiy bir maskan bor. Ushbu qutlug' go'shadan har kuni
odamlarning oyog'i u兹maydi. Bu o'z davrining yetuk alloma-
laridan biri, butun hayotini odamlarga ilm-ma'rifat tarqat-
ish, ayniqsa, yoshlarni savodli, bilimli, tarbiyalı qilish-
ga baxshida etgan Is'hoqxon
Ibrat muzeyidir.

direktori Dilshod
Mirzaaliyev. – Biz
qatag'on davrining
qurboni bo'lgan
ustozning muze-
yini tashkil qilish
maqsadida astoydil

qarindoshlaridan u kishiga
tegishli bo'lgan 100 dan ziyod
ashyolar, muhim hujjatlarni
yig'dik. Menehatrimiz zoye
ketmadni, ko'rib turganligizdek,
ustozning hayoti va ijodini
aks ettiradigan eksponat,
ashyolar, muhim hujjatlari,
yozib qoldirgan kitoblaridan
nusxalar jamlandi.

Markaz direktorining

aytishicha, Is'hoqxon Ibrat
muzeysi bilan tanishish uchun
har kuni bog'cha, maktab,
litsey, kasb-hunar kollejlari va
oliy o'quv yurtlaridan ko'plab
yoshlar kelishadi. Bu yerdagi
eksponat va ma'lumotlar bilan
tanishib, katta taassurotlar olib
qaytishadi. Muzeysiga nafaqat
respublikamiz, balki qo'shni
davlatlardan ham sayyoqlar

tez-tez kelishadi. E'tiborli, shu yilning o'zida markazga Is'hoqxon domlaning
hayoti va ijodiga qiziquvchi 60
mingdan ko'proq sayyoh, o'quvchi,
talaba va turli kasb egalari
tashrif buyurdi.

Yusufjon
HAMDAMOV

Sharqona uslubda qurilgan
binoga kirar ekanmiz, bunda
sirla bir sokinlik hukm sura-
di. Muzey uchun ajratilgan
birinchi xonada Is'hoqxon
Ibratning kiyimlari, uy ash-
yolari, ijod qilishda ishlataligil
o'quv qurollari, patefon o'rın
olgan bo'lsa, boshqa xona-
da ustozning qo'lyozma va
bosilib chiqqan kitoblaridan
namunalari, Markaziy Osiyoda
birinchi bo'lib tashkil qilgan
bosmaxonasi surat qo'yilgan.
Yana boshqa xonadan esa
ularning o'zları, oila a'zolari,

yaqin qarindoshlarining
fotosuratlari, zamondosh-
larining allo-
ma haqidagi
xotiralar joy
olgan.
– Xaba-
ringiz bor,
buyuk ma'ri-
fatparvar
yurtdoshimiz
Is'hoqxon Ibrat

muzeyi 2018-yilning 5-may
kuni ochilgan, – deydi muzey

harakat qilib, keksa avlod
vakillari va Ibrat domlaning



TAFAKKUR XAZINASINING KALITI

*Maktab faollar zalida navbatdagi qiziqarli tadbir sahna
ko'rinishi bilan boshlandi. Rol ijro etayotgan bolalardan biri
kitob, ikkinchisi esa uyali telefon tutgan.*

– Voy, – dedi to'satdan ikkinchi
bola, – telefonda bir nima o'qiyot-
gandim, quvvati tugab qoldi. Eh, eng
qiziq joyiga kelgandim-a!

– Oshna, shu telefonda kitob
o'qish odatingni tashlagin. Chunki
telefonga doim pul to'laysan, o'chib
qolsa, o'qiyotgan narsangni oxiriga
yetkaza olmaysan. Kitob esa doim
yoningda bo'ladi, quvvati ham tuga-
maydi. Aksincha, u bizga ma'naviy
ozuqa beradi. O'qib bo'lgach, boshqa
o'toqlaringga ham berib turishing
mumkin. Men hozir Feruza Adilovaning
«Uyimizning devori» nomli hikoyalari
to'plamini mutolaa qilyapman. Bu
kitobni dadajonim sovg'a qilganlar.
Istasang, senga ham berib turishim
mumkin. Ustozimning aytishicha, bu
to'plamning qayta nashri ekan. Bugun
maktabimizda ana shu kitob muallifi
bilan ijodiy uchrashuv bo'larkan. Yur,

tadbirda biz ham ishtirok etamiz.
Ikki do'st shunday deb sahnadan
chiqib ketishidi...

Poxtaxtimizning Yunusobod tu-
manidagi 274-umumta'l'm maktabida
«Tafakkur xazinasining kaliti»
mavzusida bo'lib o'tgan tadbirda
namoyish etilgan ushu sahna ko'ri-
nishi barchani mushohadaga chorladи.
4-«E» sınıf rahbari, ustoz Muqdad-
osha opa Abdullayeva yig'ilganlari
ijodiy uchrashuv mehmonlari bilan
tanshitrgach, Omina Ahrorova, Mubina
Ravshanova, Shahzoda Rizayeva, Umarbek
Abdurahmonov, Miraziz Odiljonov, Odina Ergasheva kabi
o'quvchilar kitob va mutolaaning
inson hayotida tutgan o'mi haqidagi
donolarning fikrlarini aytib berdi.
So'ng, 4-«A» sınıf o'quvchilar kitob
haqidagi she'rlarni ifodal o'qidi, 4-«B»
va 4-«E» sınıf bolalari esa qo'shiq va



raqslar ijro etdi.

Shundan keyin so'z navbati «Uyi-
mizning devori» kitobi muallifiga be-
rildi. Adiba o'quvchilik yillari, ustozlarni
hurmat qilib, a'lo baholarga o'qigan
damlarini shirin xotiralar bilan esladi.
So'ng, 4-«E», 4-«D» sınıf o'quvchilar
«Uyimizning devori» kitobidan joy
olgan ber necha hikoyalari asosida
sahna ko'rinishlari namoyish etdi. Ki-
tobdagi sodda va ravon tilda yozilgan
hayotiy hikoyalardan bolajonlar o'zları
uchun tegishli xulosalar chiqardi.

– «Tong yulduzi» gazetasini maroq
bilan o'qiyan, – deydi 4-«B» sınıf
o'quvchisi Mohinur Vosiljonova. –
Kelajakda jurnalist bo'lmochimani,
bunga uchun esa ko'p kitob mutolaa
qilishim kerak. Shu bois, kitobga
bag'ishlangan turli tanlovlarda faol
ishtirok etyapman.

Shu o'rinda bir gap. Tahririyat
xodimlari orasida ushu mabkabda
o'tkaziladigan tadbirda ishtirok etuv-
chilar darrov topiladi. Nega, deysizmi?
Chunki ushu ta'l'm muassasasidagi
har bir kecha mazmunli tashkil etiladi.
O'zingiz uchun ma'naviy ozuqa ola-
siz. Fursatdan foydalaniib, «Tafakkur
xazinasining kaliti» deb nomlangan
tadbirni tashkilashtirgan maktab
rahbari Sayfullo Mahkamov, ustoz-
lar – Dilobar Xo'jayeva, Marg'uba
Qambarova, Zebo Hakimova, Muqdad-
osha Abdullayevalarga o'z minnat-
dorligimizi bildiramiz. Ishonamizki,
kirib kelgan yangi – 2019-yilda ham

«Tong yulduzi» gazetasi yurtimizning
ilmga chanqoq o'quvchilarini, fidoyi
ustozlarining eng yaqin sirdoshiga
aylandi.

Nodira NAZAROVA



YANGI YILDA KASHFIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi «Barkamol avlod» respublika bolalar markazida bir nechta tashkilotlar hamkorligida «Xonada uchuvchi samolyot» musobaqasining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilar samolyot modellarining F-1-L, F-1-M, F-1-E yo'naliishlari bo'yicha o'zaro bellashdilar.

O'quvchilar o'z yo'naliishlari bo'yicha yasagan modellarini uchirishdi va ularning ishlammalari hakamlar hay'ati tomonidan baholandi.

– Mashg'ulot davrida ustozim Shahboz Bafoyevdan do'stim Temurbek Nusratov bilan ko'p narsalarni o'rgandik. Bugun musobaqada yurtimizning barcha viloyatlaridan kelgan tengdoshlarimiz o'zları yasagan modellar bilan qatnashdi. Men F-1-M yo'naliishida 2-o'rinni egalladim. Maqsadim, yangi yilda yangi kashfiyotlar yaratib, ota-onani va ustozlarimni xushnud qilmoqchiman, – deydi Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 57-umumta'l'm maktabining 10-sinf o'quvchisi Ravshan Nurmurodov.



Gulshoda bellashuvda o'zining penoplastdan yasagan modeli bilan qatnashdi, – deydi Namangan tumanidagi «Barkamol avlod» texnik ijodiyot markazi aviamodel to'garagi rahbari Ahmadjon Jo'rayev.

– Bir necha yildirki, aviamodel to'garagiga qatnayman. Vaqtimni bekorchi ishlarga emas, foydali mashg'ulotlarga sarfiyatganimdan juda xursandman, – deydi Namangan shahridagi 31-umumta'l'm maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi Gulshoda Tursunaliyeva.

Musobaqada g'olib deb topilgan ishtirokchilarga Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan maxsus diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

Nigora ABDUNAZAROVA

HAPPY VOCABULARY

- Do you like to read newspaper?
- Gazeta o'qishni yaxshi ko'rasizmi?
- I look through newspaper every Monday – Men har dushanba gazetani kuzatib boraman.
- Do you sell newspaper? – Siz gazeta sotasizmi?
- Can you give me today's issue of «Tong yulduz?» – Menga «Tong yulduzi» gazetasining bugungi sonini bera olasizmi?
- Newspaper for teenagers – O'smirlar uchun gazeta.
- What is the monthly subscription fee? – Gazetaning oylik obuna qancha?



WRITING TASK

There is given short story about newspaper read and continue the text.

Nowadays people learn about events from TV, radio, or from the internet. But I can not imagine my life without newspaper. Some newspapers published for teenagers. I regularly read newspaper. One of them is «Tong yulduzi». I read all the articles with interest. I think most articles are well written. In English page there are a lot of fascinating exercises. In the 6 page we read interesting history and poems... (Continue the text)

Those words help you to continue the text.



I like to read articles about sport.

I send my own articles to newspaper from internet.

Usually we follow sport news from the newspaper with my friends.

People read the newspaper to follow news and events.

Ma'mura G'ULOMOVA

7-yanvar 2019

Amirxon qishki ta'til kunlarida Yangi yil va «Savodxonlik» bayrami munosabati bilan sovg'a qilingan kitoblarni mazza qilib o'qib chiqmoqchi. Qizig'i, bolakay hali ham qo'shaloq bayram taassurotlarini unuta olgani yo'q. O'ziyam o'sha kuni jonajon maktabida zo'r bayram bo'ldi-da!

QO'SHALOQ BAYRAM SOVG'ASI

Qahramonimiz tahsil olayotgan poxtaxtimizning Mirobod tumanidagi 175-umumta'l'm maktabining 1-«G» sinf rahbari Gulnora opa Xudoyberdiyeva ajoyib tadbir tashkil etgan edi. Unda o'quvchilar ustozlaridan olgan



bilimlarini yig'ilganlarga namoyish etib, «Alifbe» kitobi bilan «xayrashdi».

Dastlab, bolajonlar «Alifbejon, kelaqlol, olqishlaysiz, quloq sol!» deya sevimli kitoblarini davraga chorladi. So'ng, jajji o'quvchilar qadron kitobiga minnatdorlik bildirib:

– Ey, kitoblar, oftoblar,
Sizni toza saqlaymiz.
A'lo o'qib hamisha,
Va'damizni oqlaymiz...

deya va'da berdi. Shundan keyin ustoz o'quvchilar va ota-onalarga sinfning a'lachi o'quvchisi Osiyo Nazarmuhamedovaning maktabda o'tkazilgan «Biz – jaholatqa qarshimiz» nomli rasmlar tanlovida muvaffaqiyyatlari ishtiroy etgani haqidagi quvonchli xabarni yetkazdi. Qizaloqqa maqtov yorlig'i ni bayramga tashrif buyurgan Qorbobo tantanalar tarzda topshirdi. Saxiy bobo baracha o'quvchilarga sovg'a va «Sinfdan tashqari o'qish» kitobini ularshar ekan,

qahramonimiz Amirxon Shakhatov sindoshlari nomidan ularga cheksiz minnatdorlik bildiridi. So'ng, mehmonga o'zi yaxshi ko'radigan she'rini ayтиб berdi.

She'rxonlik va kuy-qo'shiqlarga boy bo'lgan ushbu maroqli tadbir kichkitoylar xotirasida hali uzoq vaqt saqlanib qolsa, ajab emas.

Sayyora QODIROVA

Lesson 1

WEATHER IDIOMS

Dear my smart friends translate these idioms and put the right definition and equivalent. Let's go!

- Raining cats and dogs –
- Face like thunder –
- Lightening fast –
- Storm in a teacup –
- Snowed under –
- Chase rainbows –
- Head in the clouds –
- Under the weather –


- Having too much to do.
- Try to achieve the impossible.
- Being very fast.
- Raining very heavily.
- Being very angry or upset.
- Exaggerate a problem.
- Have unrealistic or impractical ideas.
- Feeling unwell, sad or lacking energy.

Dinora ABDULLAJONOVA

WHAT IS IT?



- Name a fruit and vegetable beginning with «A»
- Name an animal and furniture beginning with «A»
- Name a fruit and furniture beginning with «Ch»
- Name an insect and animal beginning with «S»
- Name a colour and bird beginning with «O»



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Gulchehra UBAYDULLAYEVA

XUDOYBERDI BOBONING ERTAKLARI YAXSHILIKKA YETAKLAYDI

*Odamlar, ho odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar!
Eshitmadi, demanglar,
Eshitganlar jilmanglar...*

O'zbekning Hoshimjon, Akromjon, Orifjon, Zafarjonlarini «Sariq devni minib», «Besh bolali yigitcha», «Shirin qovunlar mamlakati», «Mungli ko'zlar» kabi o'nlab asarlar orqali butun dunyoga tanitgan Xudoyberdi To'xtaboyev Siz bolalarga atab 42 ta ertak yozibdilar. Bu ertaklarning dovrugi allaqachon yurtimiz bo'y lab taralibdi. Ustoz adib ularning hammasini yig'ib, «Donishmand boba ertaklaris nomi bilan Siz aziz bolajonlarga sovg'a qilishga shoshilibdilar. Shunday ekan, Sizlar ham shoshiling! Chunki Xudoyberdi boba ertaklari barchangizni ezzulikka, yaxshilikka yetaklaydi. Bu ertaklarni qancha erta o'qisangiz, bobomiz sizga shuncha yaqin bo'ladilar. Qolaversa, milliy qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishasiz, yaxshilik sari intilasiz.

Haqiqiy yozuvchining hayoti uning xalqi taqdiri bilan chambargas bog'liq bo'ladi. Xudoyberdi To'xtaboyev tug'ilidiki, ona Vatanimizdag'i muhim tarixiy voqealarga bevosita guvoh bo'lgan. Yurtning tashvishli kunlарini ham, quvonchli yillarini ham o'z boshidan kechirgan. Bugun atoqli yozuvchimiz farzandlari, nabiralari, evaralari davrasida keksalik gashtini surib yashamoqda. Ammo bolalik yillarda buvijonisining unga aytib bergen ertaklarini so'zma-so'z yodida saqlamoqda. Ularning

ayrimlarini «Yosh do'starim bahramand bo'lsin» deya yaqinda yozib tugatgan «Donishmand boba ertaklar» kitobiga ham kiritgan. Jumladan, «Chigit oppo paxta bo'lgani» ertagini adib buvisidan eshitganiga saltkam 80 yil bo'limoqda.

Yozuvchi o'z ertaklarida bolalarga tarbiyalashga harakat qiladi. Bu fazilatlarining eng asosiyasi - YAXSHILIK.

Xo'sh, yaxshilikning o'zi nima? Yaxshilik deganda nimani tushunish kerak? Yaxshilik, avvalo, biroz odamga yomonlik qilmaslik, nochor, qiyin ahvolda qolgan insonga yordam qo'lini cho'zish, uni mushkulotdan xalos etishdir.

Shuningdek, yaxshilik rost gapirish, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, xalqi, Vatani, oilasi, atrofidagi do'star, sindoshlarini sevish ham demakdir. Aslini olganda, birovning yaxshiligini unutmashlik ham yaxshilik hisoblanadi. Mana, o'zingiz «Yaxshilik ketidan yaxshilik kelar», degan ertakni o'qib ko'ring. Shunda bunga amin bo'lasiz.

Unda vafot etgan onasining mazordan necha yillar xabar olmagan vijdonsiz o'g'il mozor tepasiga kelib hayron bo'ladi. Chunki qabr xuddi hozirgina ziyorat qilingandek, atrofi top-toza qilib supurilgan, suvlari sepilgan emish. Anvoi gullar chaman-chaman bo'lib ochilib, yon-atrofqa xushbo'yi ifor taratib turarmish. Ma'lum bo'lischicha, o'g'ilning marhum onasi tirikligida huquqni muhofaza qilish sohasida ishlagan bo'lib, bir paytlar tuhmatga

uchragan ayolni qamoqdan ozod qilgan ekan. U ayol esa qilingan yaxshilikni unutmay, har kuni o'z haloskorining mozorini ziyorat qilishni, nabiralar bilan qabrnini orasta tutishni odatga aylantiribdi. Yozuvchimiz har kim o'z ota-onasini ertakda hikoya qilangan voqealar ta'sirisiz hurmat qilishi, e'zozlashi lozim, degan g'oyani ilgari suradi.

Shuningdek, Xudoyberdi boba ertaklarida qilingan yaxshilikni esdan chiqqarganlar qattiq jazolanadi. Jumladan, to'plamdag'i «Bo'ri itdan o'ch olmoqchi bo'lgani», «Ko'mamaklik», «Yaxshilikka yomonlik tilagan ilonning jazosi», «Va'dasini bajarmagan Qulboy» kabi ertaklarda yaxshilikni unutganlarning jazoga giriftor ekanligi hikoya qilinadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev ertaklarining yana bir fazilati shundaki, ularda ahil yashashning foydasini ibratlari voqealar asosida tasvirlanadi. Ba'zan sindoshlar o'tasida turli kelishmovchiliklar, noxush voqealar bo'lib turadi. Adibning «Daraxtlar nega quriydi?», «Chaqimchi-yu g'iybatchini yer yutadi», «Farosati bola» kabi ertaklarida odamlar o'tasidagi nizo fojiga, do'stlik va oqibat xursandchilikka olib kelishi yoritilgan. Yodingizda bo'lsin, agar har birimiz e'zgu miyatlari ila yashasak, orzularimiz sari dadil intilsak, maqsadlarimizga, albatta, yetamiz. Bu maqsad o'qishinga, ilm olishsha, biron kasb-hunarni egallashga, kimgadir yaxshilik qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ba'zan istak va harakatlarimiz misli ko'rilmagan mo'jizalarga sabab bo'ladi. «Farosati bola», «Enasiga shifo axtargan yigit», «Ayajonising qoshiga o'sma qo'yan qizaloq», «Nihol ekkan chol» kabi ertaklar ana shu haqda. O'zingiz o'ylang, 6 yashar bolakay ota-onasidan falokat tufayli ayribil, buvisining qaramog'ida qoldi. Bu o'rinda yozuvchi o'zining boshidan kechirgan voqealarni yodga olayotgan bo'lishi haqiqatdan yiroq emas. E'tibor bering, avval ota vafot etdi, keyin ona ham olamdan o'tdi. Xudoyberdi To'xtaboyevning otasini ham o'sha davr tuzumi qattiq ta'qibga oladi. Ko'p o'tmay, bo'lajak yozuvchining padari, keyinchalik onasi vafot etadi. Bu voqealar ro'y bergan zamonni adib vabo kasalining tarqlashiga o'xhatgan.

Men Xudoyberdi boboning ertaklarini o'qib, rosa mazza qildim. Ularagi rost gapirishning foydasidan tortib, yolg'onchilik, birovning haqiga xiyonat qilishning zararigacha, erkin hayotning afzalligidan tortib, adolatning fayzigacha aks etgan tafsilotlar Sizlarga ham ma'qul bo'ladi.

Aziz bolajonlar, sizga ham tavsiyam shuki, qo'lingizdag'i kitobni javonga qo'ymay, mutolaa qiling. Avval bita-ikkita ertakni o'qib ko'ring. So'ogra, kechalari uxlamasdan o'qib chiqishningizda ishonomaman.

**Omonulla MADAYEV,
adabiyotshunos**

Qadim-qadim zamonda, goh u tomonda, goh bu tomonda ajib-ajib voqealar sodir bo'lib turar ekan. O'sha zamonalarda hali giyohlar ham, daraxtlar ham, hayyon u hasharotlar ham xuddi odamlarga o'xshab bir-biri bilan suhabatlashar, bir-biridan ko'ngil so'rab turishar ekan. Tartibni, intizomni yaxshi ko'rganlari uchun oralaridan goh u daraxtni, goh bu hayvonni o'zlariga rahbar etib saylashar ekan. Qiziq, yong'oqlarga Yong'oq boba, o'riklarga O'rik xola, giloslarga Yaxshi ko'rgan ammom, deb nom berishar ekan. Ular bir-birlari bilan juda ahil, inoq ekanlar.

Bir kuni Yong'oq boba oldiga lorsi lab O'rik xola kelibdi va yig'lab arzi hol qilibdi:

- Jon boba, yordam ber- ring, nihollarim, endigina ko'karoytgan bolalarim birin-ketin nobud bo'limoqda. Bir-ikki oy ichida 300 farzandimdan ayrıldim. Jon boba, qutqaring.

Yong'oq boba uning bolalarini suvsizlikdan o'la-yotgan bo'lsa kerak, degan xayolga borib, ariqda oqayotgan suvning bir qismini boqqa yo'naltiribdi. Yo'q, nihollarining nobud bo'lishi davom etaveribidi. O'rik xola yana yig'lab kelibdi. «Bolalarimdan ayribil qolyapman!» deya zorlanibdi.

- Nihollaring quvvatsizlikdan, darmonsizlikdan nobud bo'lyapti. Ularga quvvat bo'ladigan nar-salardan solgin, - debdi Yong'oq boba. Yo'q, bu ham samara bermabdi. Nega bunday bo'layotgani jumboqligicha qolaveribdi.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

(Ertak)

DARAXTLAR NEGA QURIYDI?

O'sha zamonalarda xuddi bugungiga o'xshab bir-birlarining ovozini anjir yoki yong'oqning bargiga yozib oladigan ajoyib mitti hayvonchalar bor ekan. Ularning ba'zilarini sichqon, boshqalarini ko'rsichqon, kalamush deb atashar ekan. Bir kuni O'rik xolaning oldiga kalamush kelibdi:

- O'rik xola, nabiralarinigizing nega nobud bo'layotganini manavi anjirning bargiga yozib olganman. Mening ajodolarim rassom o'tgan, suratini ham chizib qo'yanman, - debdi-da, lip etib ko'zdan g'oyib bo'libdi. O'rik xola anjir bargiga yozilgan sehrli ovozni asta-sekin tinglay

boshlabdi. Eshitsa, daraxtning eng tagida turgan tomir baland ovozda baqirayotgan emish.

- Hoy tana-shoxlar, barglar! Maqtanmang, hammang men tufayli yashayapsizlar, pastdan o'g'itni, suvni, quvvatni men olib jo'natayman. Agar men bo'lmasam, hammangiz allaqachon nobud bo'lar-dingiz, - deb bir silkingan ekan, tomirlar qattiq qo'zg'alib qo'yibdi.

- Yo'q, - debdi daraxtning tanasi, - sen o'g'itni, suvni yiqqanining bilan mening tanam orqali o'tayapti. Agar men bo'lmasanimda, o'g'iting ham, suving ham bir pul. Bu yerda mana men xo'jayinman! - debdi.

Shunda tepadagi shoxlarning mayda shinchari - barglar birdan chuvillab qolishibdi:

- Ey tanavoy, hoy tomirvoylar. Hadeb maqtanaver manglar. Agar biz quyoshdan nur, oydan yorug'lik, havodan shirin-shirin nafaslar olib, sizlarga jo'natib turmasak, allaqachon nobud bo'lardilaring. Bu yerda xo'jayin biz bo'lamiz, - debdi-da, ular ham bir silkinibdi.

Endi kalamushning anjir bargiga yozilgan xulosasini qarang:

«Qayerdaki manmanlik boshlansa, o'sha joyda bir-biriga dushmanlik boshlanadi. O'sha yerdagi daraxtlar ham, kalamushlar ham, sichqonlar ham, boringki, hamma narsa nobud bo'ladi. Bilib qo'yingki, bu gaplarni yozgan katta kalamush xolangiz bo'laman!».

Qissadan hissa shuki, manmanlik boshlangan joyda, ahillik yo'qolgan joyda hamma narsa nobud bo'lar ekan.

OLAMGA CHIROY KELDI

Bu yil yangi yilimiz,
Latofatga boy keldi.
Nurga burkab jahonni,
Yuzlari shirmoy keldi.

Osmom to'lib durlarga,
Savatlarda qor keldi.
Har bir uya to'y keldi,
Mehmon bo'lib oy keldi.

Dur qopladi zaminni,
Qut-baraka, moy keldi.
Qozon to'lib osh keldi,
Qand-u asal, choy keldi.

Omad kului odamga,
Gijinglagan toy keldi.
Tinchlik keldi, baxt keldi,
Olamga chiroy keldi.

MENING NURLI PARKENTIM

Dunyoda eng chiroyli,
Tog'laringdir viqori.
Odamlaring baxt-yorli,
Mening ajib Parkentim.

Sen yagona dunyoda,
Husning erur ziyoda,
Ham mehribon, ham sodda,
Mening go'zal Parkentim.

Qayga bormay, albatta,
Saqlayman seni yodda.
Gullab-yashna hayotda,
Mening nurli Parkentim.

Jasur QUTBIDDINOV,
Toshkent viloyati, Parkent
tumanidagi 10-umumta'l'm
maktabining 9-sinf o'quvchisi

OQ FASL



To't fasl almashib borar yil aro,
Barcha fasllar chiroyli, go'yo.
Ammo ular ichra go'zal, eng a'llo,
Qish fasli biz uchun yog'dirar ziyo.

Bahorda gullar oq o'z bog'i bilan,
Yozda meva pishar ardog'i bilan.
Kuz ham bezanadi sariq rang bilan,
Olam chiroyidir qish fasli bilan.

Qish bolalarga quvonch uyg'otar,
Archalar yangi yil daragin berar.
Yangi yil qo'shig'inibirga aytamiz,
Kun bo'y qor o'ynab, uya qaytamiz.

Miraziz IZZATOV,
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 54-umumta'l'm
maktabining 6-«G» sinif o'quvchisi

Aql quvvatni oromdan emas, mashqdan
oladi.

A. POP

YUksAK MARRALAR SARI

2018-yil ta'l'm sohasida fidokorona mehnat qilayotgan biz o'qituvchilar hayotida o'chmas iz qoldirdi. Yurtboshimiz o'z nutqlarida soha xodimlarini yuksak marralarni zabit etishga, yosh avlodni Vatan va xalq xizmatiga «Labbay» deb javob beradigan, sodiq farzandlar qilib tarbiyalashga undamoqda.

Ortada qolgan yilning so'nggi kunlarida Xo'jaobod tumanidagi 11-umumta'l'm maktabida «O'quvchilar ning Vataniga, ona xalqiga mehr-muhabbatini, sadogatini orttirish» mavzusida viloyat seminari bo'lib o'tdi. Maktab o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan ochiq darslarda o'quv seminarining mazmun-mohiyati to'la-to'kis bayon etildi. Qolaversa, ustozlar mashg'ulotlarda har bir fanga oid ilg'or pedagogik uslublarni o'z o'mida qo'llab, o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrashlariga erishdilar.

Quvonarlisi, o'qituvchi va o'quvchilar birlgilidka elektron darslik va ilovalardan, darsga oid slaydlardan unumli foydalanishdi. O'quv seminar davomida 2019-yilda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar rejalashtirib olindi.

Nigoraxon ISAQOVA, Andijon viloyat XTB uslubli xizmat ko'rsatish bo'ilmi metodisti,
Ma'muraxon MAMATRAHIMOVA, Xo'jaobod XTB metodisti

MARDLIK VA JASORAT

Xabarlingiz bor, 2018-yilning 15-dekabridan joriy yilning 15-yanvariga qadar respublikamiz bo'ylab «Harbiy vatanparvarlik oyligi» e'lon qilingan edi. Oylik doirasida yurtimiz ta'l'm muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar qizg'in nishonlanmoqda.

Toshkent viloyati Nurafshon shahridagi 10-umumta'l'm maktabida ham «Mardlik va jasorat» mavzusida harbiylar bilan ochiq muloqot, davra suhbatlari va «Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharafla burchdir» shiori ostida tadbirlar bo'lib o'tdi.

Yaqning maktabga tumandagi harbiy bo'linma xizmatchilari tashrif buyurib, 10-11-sinf o'quvchilar bilan davra suhbat o'tkazishdi. Shuningdek, ta'l'm maskanida Nurafshon shahar mudofaa bo'ilmi va shahar Milliy gvardiya harbiy bo'linmasi vakillari mehmon bo'ldi. Uchrashevda «Vatanparvarlik nima?», «Vatanparvar inson qanday bo'lish kerak?» kabi savollarga o'quvchilar batafsil javob oldi. Shuningdek, yuqori sinif o'quvchilar Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorgarlik darslarida oлgan bilim va ko'nikmalarini namoyish qilib, mehmonlarni xushnud etdi.

Tadbir so'ngida Milliy gvardiya xizmatchilari tomonidan namoyish etilgan harbiy chiqishlar o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.



POYTAXTLIK GANDBOLCHILAR G'OLIB

Yaqinda poytaxtimizda o'smirlar o'rtasida qo'l to'pi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Turnirda 2004-2005-yilda tug'ilgan o'smirlardan iborat Toshkent terma jamoasi 1-o'rinni egalladi.



Yakkasaroylik sportchilardan Jaloliddin, Shahobiddin, Fayruzbek va Akmaljon Almanov, Yashnobod tumanidan Hasan va Husan hamda bektemirlik Shohruhlardan iborat jamoa birinchi o'yinda Toshkent-2 jamoasini 49:10 hisobda mag'lub etdi. Ikkinchi bahsda jizzaxlik gandbolchilarni 28:16, uchinchi o'yinda esa namanganlik raqiblarni 26:16 hisobda yengdi.

Chorak finalda Nukus termasidan ustun kelgan jamoa finalda sirdaryolik tengdoshlarini ham taslim etib, g'oliblikni qo'lg'a kiritdi. 2-o'r'in Sirdaryo sportchilari, 3-o'r'in Nukus va Namangan jamoalariga nasib etdi.

Shu kunlarda Toshkent o'smirlar terma jamoasi fevral oyida Jizzax shahrida bo'lib o'tadigan mamlakat championatiga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

Muhammadsodiq ALIMOV

QIZIQARLI SAVOLLAR:



Nima uchun muz suvda cho'kmaydi?

Boshi olovda, oyog'i suvda?

Nima uchun «Qizil kitob» qizil rangda?

Dunyodagi eng uzun daraxtning bo'y 155 m,
u qaysi daraxt?

Ucha olmaydigan qushning nomi?

Yer yuzida yashab kelayotgan eng qadimgi
hayvon qaysi?

Timsohlar suvgaga chuqurroq sho'ng'ishi
uchun nima qilishadi?

Yerning qutblarida to'plangan muzlardan
sinib, ko'chib yuradigan ulkan muz tog'lari
nima deylidi?



Gulzoda MUHIDDINOVA,

poytaxtimizning Olmazor tumanidagi

261-umumta'l'm maktabining biologiya fani o'qituvchisi

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

«KUMUSH FASL» TOPQIRLIK MASHQLARI

KROSSVORD «Zanjir»

holida: 1. Qish faslida turli sabzavot va rezavor ekinlar yetishtiriladigan maskan. 2. Qishda uyquga ketadigan o'rmon yirtqichi. 3. Qishning kuchli sovuq davri. 4. Qishga saqlanadigan ho'l meva. 5. Yaxmalakda uchish moslamasi. 9. Shaybali

sport o'yini. 10. Deyarli qor yog'maydigan, poytaxti Sano shahri hisoblanuvchi tropik mamlat. 11. Qishda g'aroyib ko'rinishdagi muzlari hosil bo'lib, sayyoqlarni hayratga soluvchi dunyoning eng go'zal sharsharasi. 12. Gullamay meva tuguvchi daraxt.

Bo'yiga: 6. Suvning qattiq

holati. 7. Yilning qirq kunlik davri. 8. Deyarli qorlar yog'ib qish bo'lmaydigan qit'a. 13. Yilning eng uzoq tuni va eng qisqa kuniga berilgan nom. 14. Qish faslida tavallud topgan atoqli o'zbek adibi, akademik. 15. Qishki bosh kiyim. 16. Asosan qishda iste'mol qilinadigan yaxna

yegulik.

Eniga: 14. Qishki olimpiada o'yinlari bo'lib o'tgan Yevropadagi poytaxt shahar.

KRIPTOGRAMMA Kalit so'zlar: 1. Rossiya Federaatsiyasidagi so'nggi qishki olimpiada o'yinlari bo'lib o'tgan shahar – 18, 9, 6, 1.

2. Rus adibi N.A. Nekrasovning qish fasliga atab yozgan asari – 2, 20, 2, 16, 2, 17, 1, 10.

3. Qorboning nabirasi – 21, 9, 4, 21, 1, 10.

4. Sutka qismi – 7, 5, 12.

5. Qishda uyquga ketadigan daraxt shoxida yashochi baroq dumli o'rmon kemiruvchisi – 9, 8, 16, 2, 19, 9, 12.


6. Tog'dan maxsus jihozlangan trassa – qiya burilishlari bo'lgan muzlama novdan shiddat bilan tushishga mo'ljallangan, yaxlit metallidan yasalgan chana – 3, 9, 3, 18, 8, 14, 20.

7. Yer sharining qishda iqlimi sovuq bo'ladiqan nisbatan baland hududi – 13, 9, 15.

8. Milliy ustki libos – 13, 11, 12.

Avval kalit so'zlar orqali shaki atrofidagi raqamlarda yashiringan kriptogrammani hal eting. Bunda ulardan to'rt misrali topishmoq ayon bo'ladi. Endi ana shu topishmoq javobini toping-chil!

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



8

7 yanvar 2019

Tong
yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxtadan
o'tgan.

TAHIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 13 066
Buyurtma - V 3018

Tahririyatga kelgan barcha qolymozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirishga
tashkilat javobiga.
Shakli A-3, 2 taboq.
Bahosi kelishilgan narxida
chop etildi.
Topshirish vaqt - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08

QIZIL LOVIYALI SALAT

Pazanda qizga!



Salom, axiz dugonajonlar!
Yangi yil bayramini yaxshi
kutib oldingizmi? O'ylaymizki, bizning
tavsiyalarimiz tufayli dasturxonimgiz ko'rkiga
ko'rk q'shilib bormoqda. Bugun sizlarga
tavsiya qiladigan salatimiz vitaminlarga
boy va mazali. Qani, tayyormisiz? Unda,
boshladik:

**Buning
uchun biz-**

ga: 0,5 kilo-
gramm tovuq
filesi, 1 dona o'racha
kattalikdagi bodring,
200 gramm pishirilgan
qizil loviya, 200 gramm
to'g'ralgan qizil sabzi (tayyorini
olsangiz ham bo'ladi), 1 quti qotgan non, yarim bog' shivit,
yarim bog' ko'kipioz, 150 gramm mayonez kerak bo'ladi.



Tayyorlanishi: tovuq filesini tuzli suvda pishiramiz. Uni somoncha shaklida to'g'rab, chuqurroq idishga solamiz. Qaynatib pishirilgan loviyanı go'shit bilan aralashtiramiz. So'ngra, qolgan masalliqlarni somoncha shaklida to'g'rab, tovuq go'shti ustiga solamiz. Ish oxirda barcha masalliqlarga mayonez va mayda to'g'ralgan ko'ktalarni q'shib, yaxshilab aralashtiramiz. Salatni dasturxonga tortishdan oldin qotirilan non bo'laklarini soling. Aks holda u mayonez bilan aralashib, bo'kib qolishi mumkin.

Yoqimli ishtaҳal!

NARGIZA tayyorladi